

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, I-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI	34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna BREND POZITSİYALASH STRATEGİYASINI ISHLAB CHIQISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI	41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI	46
Davlatova Nilufar Avazovna KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО «SAM PULSAR DISTRIBUTORS»	61
Мусаева Шоира Азимовна KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	68
Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLARNING YANGI O'ZBEKISTONGA TA'SIRI	73
Jahongir Nurulloevich Jurayev YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI.....	77
Nasulloeva Oydiyoy Saidovna ПРИВЛЕЧЕНИЕ МОЛОДЁЖИ К ЭКСПОРТУ ЦИФРОВЫХ УСЛУГ: МЕХАНИЗМ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ.....	82
Палвонова Севара Бахромовна MINTAQA IQTISODIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHDA IT-PARKLARNING NAZARIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI	94
Sultanova Zuxra Jaksilikovna INSON KAPITALINING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI	99
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI MONITORING QILISHNING INTEGRATSIYALASHGAN UZEMS MODELI	103
Bobobekov Ergash Abdumalikovich AUDIT JARAYONIDA MOLIYAVIY FIRIBGARLIK BELGILARINI ANIQLASHNING TAHLILIY TARTIB-TAOMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH	108
Xusanov Shuxrat Burxanovich FROM AUTOMATION TO STANDARDIZATION: OPERATIONS MANAGEMENT CHALLENGES IN UZBEKISTAN'S HOSPITALITY SECTOR.....	115
Asal Kadirova СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	125
Нигматова Сугдиена Жалолiddин кизи	



SANOAT 4.0 TEXNOLOGIYALARINING RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI VA UZOQ MUDDATLI IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	131
Komilova Dilafruz Rustam qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	137
Samiyeva Gulnoza Toxirovna	
O'taganov Fazliddin Isroil o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СТРАХОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРИСТСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ	142
Эргашева Файёза Боходир кизи	
МЕХАНИЗМЫ ГАРМОНИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО УЧЕТА И ОТЧЕТНОСТИ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКЕ	146
Жиенбаева Айсанем Оразбаевна	
XORAZM VILOYATIDA SHOLI YETISHTIRISHNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNING RESPUBLIKA SHOLICHILIGIDAGI O'RNI	154
Matrasulova Feruza Baxodirovna	
YIRIK KORXONALARDA SOLIQ NAZORATINING HUQUQIY ASOSLARI VA HORIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	159
Qo'shaqov Asrorjon Nematjonovich	
ФОРМИРОВАНИЕ РЕЗУЛЬТАТИВНОЙ СТРУКТУРЫ БЮДЖЕТНЫХ ПРОГРАММ В СФЕРЕ СТРОИТЕЛЬСТВА И ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНОГО ХОЗЯЙСТВА: МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	166
Мирзаева Дилдора Иномовна	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI VA KREDIT RISKLARI HOLATINI BAHOLASH (DAVLAT BANKLARI MISOLIDA)	174
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	



O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI VA KREDIT RISKLARI HOLATINI BAHOLASH (DAVLAT BANKLARI MISOLIDA)

Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston tijorat banklarida kredit portfelining shakllanishi va kredit risklari holatini kompleks baholash masalalari uchta yirik davlat banki — "O'zmilliybank" AJ, "O'zsanoatqurilishbank" ATB va "Asakabank" AJ misolida tadqiq etilgan. Markaziy bankning (cbu.uz) 2021–2025-yillardagi statistik ma'lumotlari asosida banklarning kredit portfeli tarkibi, muammoli kreditlar ulushi, zaxiralar bilan qoplanish darajasi, portfel konsentratsiyasi va valyuta tarkibi tahlil qilingan. 12 ta kuzatuvni qamrab olgan panel regressiya modeli yordamida muammoli kreditlar ulushiga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan ($R^2 = 0,941$; $F = 71,77$): oldingi yildagi kredit o'sishi va yirik qarz oluvchilar konsentratsiyasi statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi isbotlangan. Muallif tomonidan integral kredit riski indeksi (IKRI) taklif etilgan; uning qiymati 2023-yilda barcha uch bankda eng yuqori nuqtaga yetgan va 2025-yilga kelib pasaygan. Tadqiqot natijalari asosida davlat banklarida kredit risklarini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kredit portfeli, kredit riski, muammoli kreditlar, davlat banklari, riskni baholash, portfel konsentratsiyasi, zaxiralar, kapital yetarliligi, panel regressiya, integral indeks.

Аннотация. В статье исследованы вопросы комплексной оценки формирования кредитного портфеля и состояния кредитных рисков в коммерческих банках Узбекистана на примере трех крупных государственных банков — АКБ «Узсаноатбанк», АКБ «Узпромстройбанк» и АО «Асакабанк». На основе статистических данных Центрального банка (cbu.uz) за 2021–2025 годы проанализированы структура кредитного портфеля банков, доля проблемных кредитов, уровень покрытия резервами, концентрация портфеля и валютная структура. С помощью панельной регрессионной модели, охватывающей 12 наблюдений, определены факторы, влияющие на долю проблемных кредитов ($R^2 = 0,941$; $F = 71,77$): доказана статистическая значимость роста кредитования в предыдущем году и концентрации крупных заемщиков. Автором предложен интегральный индекс кредитного риска (ИКРП); его значение достигло максимального уровня в 2023 году во всех трех банках и снизилось к 2025 году. На основе результатов исследования разработаны рекомендации по совершенствованию управления кредитными рисками в государственных банках.

Ключевые слова: кредитный портфель, кредитный риск, проблемные кредиты, государственные банки, оценка риска, концентрация портфеля, резервы, достаточность капитала, панельная регрессия, интегральный индекс.

Abstract. The article examines the issues of comprehensively assessing the formation of credit portfolios and the state of credit risks in commercial banks of Uzbekistan, using three major state-owned banks—UzNatsBank JSC, Uzpromstroybank JSCB, and Asakabank JSC—as examples. Based on statistical data from the Central Bank (cbu.uz) for 2021–2025, the structure of banks' credit portfolios, the share of non-performing loans, the level of reserve coverage, portfolio concentration, and currency composition were analyzed. A panel regression model covering 12 observations was used to identify the factors affecting the share of non-performing loans ($R^2 = 0.941$; $F = 71.77$). The results demonstrate the statistical significance of credit growth in the previous year and the concentration of large borrowers. The author proposes an Integrated Credit Risk Index (ICRI), whose value reached its highest level in 2023 across all three banks and declined by 2025. Based on the research findings, recommendations were developed to improve credit risk management in state-owned banks.

Keywords: credit portfolio, credit risk, non-performing loans, state-owned banks, risk assessment, portfolio concentration, reserves, capital adequacy, panel regression, integrated index.



KIRISH

O'zbekiston bank tizimi so'nggi besh yilda jadal miqdoriy o'sishni boshdan kechirdi. 2025-yil yakunlariga ko'ra, tizimning jami aktivlari 892,9 trln so'mni, majburiyatlari 759,8 trln so'mni tashkil etdi, sof foyda esa bir yilda 57,1 foizga o'sib, 13,5 trln so'mga yetdi. Ayni paytda bank sektorida davlat ishtiroki hamon yuqoriligicha qolmoqda: tizimli ahamiyatga molik yetti bankning aktivlaridagi ulushi 2025-yil 1-oktabr holatiga 64 foizni tashkil etgan bo'lib, ularning aksariyati davlat banklari hisoblanadi.

Davlat banklarining kredit portfeli sifati masalasi butun bank tizimining barqarorligi uchun tizimli ahamiyatga ega. Bir tomondan, ushbu banklar iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini, yirik investitsiya loyihalarini va ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlarni moliyalashtirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Boshqa tomondan, aynan shu vazifa ularning kredit portfelida yuqori konsentratsiya, uzoq muddatli va valyutadagi kreditlarning katta ulushi hamda bozor mezonlaridan farq qiluvchi qaror qabul qilish amaliyoti shakllanishiga olib keladi. Xalqaro reyting agentliklari ham davlat banklari portfelidagi muddati o'tgan kreditlar ulushining yaqin yillarda eng yuqori nuqtaga yetishi mumkinligini qayd etmoqda.

Kredit riskini baholashning an'anaviy yondashuvi asosan muammoli kreditlar ulushi (NPL) ko'rsatkichiga tayanadi. Biroq bu ko'rsatkich riskning faqat allaqachon ro'y bergan qismini aks ettiradi va kelgusi yo'qotishlar salohiyatini — portfelning konsentratsiyasi, valyuta tarkibi, zaxiralar bilan qoplanish darajasi va kapital himoyasini — hisobga olmaydi. Shu sababli kredit riskini bir necha o'lchovni birlashtirgan integral yondashuv asosida baholash zamonaviy bank tahlilining ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda.

Tadqiqotning maqsadi — O'zbekiston tijorat banklarida kredit portfeli holati va kredit risklari darajasini kompleks baholash uslubiyatini ishlab chiqish hamda uni uchta yirik davlat banki misolida sinovdan o'tkazishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida "O'zmilliybank" AJ, "O'zsanoatqurilishbank" ATB va "Asakabank" AJ tanlangan. Ularning tanlanishi quyidagilar bilan asoslanadi: uchala bank ham Markaziy bankning tizimli ahamiyatga molik banklar ro'yxatiga kiritilgan; ular turli biznes-modellarni ifodalaydi (universal, sanoat-qurilish va tarmoqqa ixtisoslashgan); 2025-yil holatida ularning jami kredit portfeli bank tizimi kredit qo'yilmalarining qariyb 40 foizini tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi integral kredit riski indeksi (IKRI)ning taklif etilishi va muammoli kreditlar ulushiga ta'sir etuvchi omillarning panel regressiya modeli orqali miqdoriy baholanishida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kredit portfeli va kredit risklarini baholash masalalari bank faoliyatining moliyaviy barqarorligi, aktivlar sifati va risklarni boshqarish samaradorligini belgilovchi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur masala bo'yicha xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan kredit riskining kelib chiqish sabablari, muammoli kreditlarning shakllanish omillari, kredit portfeli diversifikatsiyasi hamda bank kapitalining risklarni qoplashdagi roliga oid turli ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Kredit riskini baholashning nazariy asoslari dastlab korxonalarning moliyaviy barqarorligini prognozlashga qaratilgan tadqiqotlarda shakllangan. Altman [5] moliyaviy koeffitsiyentlar va diskriminant tahlil asosida korxonalarning bankrotlik ehtimolini baholash modelini taklif etib, moliyaviy ko'rsatkichlardan foydalanish orqali kreditga layoqatlilik va defolt xavfini oldindan aniqlash imkoniyatlarini asoslab bergan. Merton [6] esa korporativ qarzlarning riskini baholashda aktivlar qiymati, qarz majburiyatlari va foiz stavkalari o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga oluvchi nazariy modelni ishlab chiqqan. Mazkur yondashuvlar keyinchalik kredit riskini miqdoriy baholash modellarining rivojlanishiga muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilgan.

Banklarda muammoli kreditlarning shakllanishi va kredit riskiga ta'sir etuvchi omillar Berger va DeYoung [7] tomonidan o'rganilgan. Mualliflar muammoli kreditlar bilan banklarning xarajatlar samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, kredit portfeli sifatining yomonlashuvi bank faoliyatining umumiy samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini asoslagan. Louzis, Vouldis va Metaxas [8] esa Gretsiya banklari misolida ipoteka, biznes va iste'mol kreditlari bo'yicha muammoli kreditlarning makroiqtisodiy va bankka xos determinantlarini tadqiq etgan. Ushbu tadqiqot kredit riskining nafaqat makroiqtisodiy sharoitlar, balki kredit portfelining tarkibi va bankning individual xususiyatlari bilan ham bog'liqligini ko'rsatadi.

Klein [9] Markaziy, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Yevropa mamlakatlarida muammoli kreditlarning determinantlarini tahlil qilib, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va bank faoliyatiga xos omillarning kredit portfeli sifatiga ta'sirini o'rgangan. Beck, Jakubik va Piloju [10] esa muammoli kreditlar dinamikasini iqtisodiy sikl bilan bog'liq holda tadqiq etib, kredit riskini baholashda iqtisodiy faollik bilan bir qatorda bankka xos omillarni ham hisobga olish zarurligini ta'kidlagan. Salas va Saurina [11] tadqiqotida esa turli institutsional rejimlarda faoliyat yurituvchi tijorat va jamg'arma banklarida kredit riskining shakllanish xususiyatlari tahlil qilgan.

Kredit risklarini boshqarishning xalqaro institutsional asoslari Bazel bank nazorati qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillarda o'z aksini topgan. Qo'mitaning kredit risklarini boshqarish tamoyillari [12] banklarda



kredit riskini aniqlash, o'lchash, monitoring qilish va nazorat qilishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Basel III standartlari [13] esa bank kapitalining yetarliligi, risklarni qoplash imkoniyatlari va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash talablarini yanada kuchaytirgan. Mazkur yondashuvlar kredit riskini alohida ko'rsatkichlar asosida emas, balki bankning kapitali, aktivlari sifati va risklarni qoplash imkoniyatlarini o'zaro bog'liq holda baholash zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston bank tizimida kredit risklarini boshqarishning me'yoriy-huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bank tizimini isloh qilish strategiyasiga oid hujjatlari hamda Markaziy bank tomonidan tasdiqlangan prudensial talablar asosida shakllangan [1–4]. Xususan, tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish, aktivlar sifatini tasniflash va ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirishga oid talablar bank kredit portfelining sifatini nazorat qilishning institutsional asosini tashkil etadi. Markaziy bankning statistik ma'lumotlari [15–17] esa kredit qo'yilmalari, bank aktivlari va boshqa asosiy ko'rsatkichlarning dinamikasini baholash uchun muhim axborot manbai hisoblanadi.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili kredit riskini baholashda muammoli kreditlar ulushi, kredit portfeli o'sish sur'ati, portfel konsentratsiyasi, zaxiralarning qoplash darajasi, xorijiy valyutadagi kreditlar ulushi va kapital yetarliligi kabi ko'rsatkichlarning muhimligini ko'rsatadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda ushbu ko'rsatkichlarni O'zbekiston davlat banklari misolida yagona integral ko'rsatkichga birlashtirib, kredit riskini kompleks baholash masalasiga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan. Shu jihatdan, mazkur tadqiqotda uchta yirik davlat bankining kredit portfeli va kredit risklari holatini kompleks baholash, riskka ta'sir etuvchi asosiy omillarni panel regressiya modeli orqali aniqlash hamda integral kredit riski indeksini ishlab chiqish mavjud ilmiy yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti (cbu.uz) statistik ma'lumotlari, banklarning yillik moliyaviy hisobotlari hamda Korporativ axborot yagona portali materiallari tashkil etadi. Tahlil davri — 2021–2025-yillar.

Kredit riskiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun panel ma'lumotlar asosida quyidagi regressiya modeli qurilgan:

$$NPL_{it} = a + b_1 \cdot GR_{i,t-1} + b_2 \cdot CONC_{it} + \varepsilon_{it}, \quad (1)$$

bu yerda: NPL — i-bankning t-yildagi muammoli kreditlar ulushi (%); GR — oldingi yildagi kredit portfeli o'sish sur'ati (%); $CONC$ — yirik 10 qarz oluvchining portfeldagi ulushi (%); a, b_1, b_2 — model parametrlari; ε — tasodifiy xatolik.

Model 3 ta bank va 4 yil (2022–2025) kesimidagi 12 ta kuzatuv asosida eng kichik kvadratlar usulida baholangan. Dastlabki bosqichda modelga xorijiy valyutadagi kreditlar ulushi (FX) ham kiritilgan, biroq uning koeffitsiyenti statistik jihatdan ahamiyatsiz bo'lgani ($t = -1,61$) sababli yakuniy spetsifikatsiyadan chiqarilgan; ushbu ko'rsatkich tavsifiy tahlilda saqlab qoling.

Kredit riskini kompleks baholash uchun muallif tomonidan integral kredit riski indeksi ($IKRI$) taklif etilgan:

$$IKRI = 0,30 \cdot (NPL/NPL_e) + 0,20 \cdot (RC_e/RC) + 0,20 \cdot (CONC/CONC_e) + 0,15 \cdot (FX/FX_e) + 0,15 \cdot (CAR_e/CAR) \quad (2)$$

bu yerda RC — zaxiralarning muammoli kreditlarni qoplash darajasi (%); FX — xorijiy valyutadagi kreditlar ulushi (%); CAR — kapitalning umumiy yetarlilik koeffitsiyenti (%); "e" indeksi etalon qiymatni bildiradi. Bazel qo'mitasi tavsiyalari va Markaziy bank talablari asosida quyidagi etalon darajalar qabul qilingan: $NPL_e = 5,0\%$; $RC_e = 100,0\%$; $CONC_e = 25,0\%$; $FX_e = 40,0\%$; $CAR_e = 15,0\%$. Zaxira qoplashi va kapital yetarliligi uchun teskari nisbat qo'llaniladi, har bir tarkibiy qismning maksimal qiymati 2,00 darajasida cheklanadi.

$IKRI$ qiymatini talqin qilish uchun quyidagi shkala taklif etilgan: 1,00 gacha — past risk darajasi; 1,00–1,20 — o'rtacha; 1,20–1,50 — yuqorilashgan; 1,50 dan yuqori — yuqori risk darajasi. Barcha hisob-kitoblarni Microsoft Excel dasturiy paketida bajarilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot obyekti bo'lgan uchta davlat bankining kredit portfeli va aktivlari dinamikasi 1-jadvalda keltirilgan (1-jadval).




1-jadval

Davlat banklarining kredit portfeli va aktivlari dinamikasi, trln so'm

Bank / ko'rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025
«O'zmilliybank» AJ — kredit portfeli	65,6	80,5	95,3	108,0	112,0
— jami aktivlar	89,9	103,0	118,2	135,0	148,5
«O'zsanoatqurilishbank» — kredit portfeli	47,5	55,2	62,8	68,5	72,4
— jami aktivlar	58,0	67,5	78,0	86,0	92,5
«Asakabank» AJ — kredit portfeli	32,4	37,8	42,6	45,9	47,2
— jami aktivlar	39,5	46,0	52,4	57,8	61,0
Uch bank kredit portfeli, jami	145,5	173,5	200,7	222,4	231,6
Bank sektori kredit portfeli	326,4	390,0	460,0	520,0	587,0
Uch bank ulushi sektorda, %	44,6	44,5	43,6	42,8	39,5

Jadval ma'lumotlari uchta bankning kredit portfeli 2021–2025-yillarda 145,5 trln so'mdan 231,6 trln so'mga, ya'ni 1,59 barobarga oshganini ko'rsatadi. Biroq bu o'sish bank sektorining umumiy o'sishidan sekinroq kechgan: agar 2021-yilda uchta bank sektor kredit qo'yilmalarining 44,6 foizini ta'minlagan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 39,5 foizga tushgan. Besh yilda 5,1 foiz bandlik pasayish bank tizimida davlat ishtirokini kamaytirish siyosatining amaliy natijasi hisoblanadi va Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan tavsiya etilgan yo'nalishga muvofiq keladi.

Banklar kesimida sur'atlar sezilarli farq qiladi. «O'zmilliybank» 2021–2024-yillarda portfelni 65,6 trln so'mdan 108,0 trln so'mga o'stirgan bo'lsa, 2025-yilda o'sish sur'ati keskin sekinlashib, atigi 3,7 foizni tashkil etgan. «Asakabank»da bu ko'rsatkich yanada past — 2,8 foiz. Kredit portfeli o'sishining sekinlashuvi bir vaqtning o'zida ikki jarayonni aks ettiradi: xususiylashtirishga tayyorgarlik doirasida portfelni tozalash va risklarni qayta baholash hamda kapital yetariligi cheklovlari ta'sirida ekstensiv o'sishdan voz kechish (1-rasm).



1-rasm. Uchta davlat bankining kredit portfeli dinamikasi, trln so'm

Kredit portfelining tarkibiy ko'rsatkichlari 2-jadvalda umumlashtirilgan (2-jadval).

2-jadval

Kredit portfelining tarkibiy ko'rsatkichlari, %

Ko'rsatkich va bank	2021	2022	2023	2024	2025
Kreditlarning aktivlardagi ulushi:					
— «O'zmilliybank» AJ	73,0	78,2	80,6	80,0	75,4
— «O'zsanoatqurilishbank» ATB	81,9	81,8	80,5	79,7	78,3
— «Asakabank» AJ	82,0	82,2	81,3	79,4	77,4
Kredit portfeli o'sish sur'ati:					
— «O'zmilliybank» AJ	19,3	22,7	18,4	13,3	3,7
— «O'zsanoatqurilishbank» ATB	14,5	16,2	13,8	9,1	5,7
— «Asakabank» AJ	13,7	16,7	12,7	7,7	2,8

2-jadval tahlili barcha uch bankda kreditlarning aktivlardagi ulushi 2023-yildan boshlab pasayish tendensiyasiga kirganini ko'rsatadi. «O'zmilliybank»da bu ko'rsatkich 2023-yildagi 80,6 foizdan 2025-yilda 75,4 foizgacha, ya'ni 5,2 foiz bandga kamaygan. Aktivlar tarkibida kreditlarning ulushi qisqarishi bir vaqtning o'zida likvid aktivlar va qimmatli qog'ozlar portfelining oshganidan dalolat beradi — bu risk profilining muvozanatlashuvi




sifatida ijobiy baholanadi, biroq foizli daromadlilikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Banklarning kredit riski ko'rsatkichlari 3-jadvalda keltirilgan (3-jadval).

3-jadval
Davlat banklarining kredit riski ko'rsatkichlari, %

Ko'rsatkich va bank	2021	2022	2023	2024	2025
Muammoli kreditlar ulushi (NPL):					
— «O'zmilliybank» AJ	4,9	5,6	6,0	5,4	4,8
— «O'zsanoatqurilishbank» ATB	5,6	6,4	6,9	6,2	5,5
— «Asakabank» AJ	6,5	7,6	8,2	7,4	6,6
— bank sektori o'rtachasi	5,2	4,9	4,5	4,3	3,5
Zaxiralarning NPL ni qoplashi (RC):					
— «O'zmilliybank» AJ	72	69	67	74	82
— «O'zsanoatqurilishbank» ATB	66	63	61	68	75
— «Asakabank» AJ	60	57	54	62	70
Yirik 10 qarz oluvchi ulushi (CONC):					
— «O'zmilliybank» AJ	32	31	30	29	28
— «O'zsanoatqurilishbank» ATB	38	37	36	34	32
— «Asakabank» AJ	45	44	42	40	38
Valyuta kreditlari ulushi (FX):					
— «O'zmilliybank» AJ	46	45	43	41	39
— «O'zsanoatqurilishbank» ATB	51	49	47	45	43
— «Asakabank» AJ	57	55	53	51	49
Kapital yetarliligi (CAR):					
— «O'zmilliybank» AJ	17,2	17,8	18,1	18,5	19,0
— «O'zsanoatqurilishbank» ATB	14,8	15,0	15,2	15,4	15,6
— «Asakabank» AJ	13,5	13,8	14,0	14,1	14,3

Muammoli kreditlar dinamikasi tahlilida eng muhim jihat davlat banklari bilan bank sektori o'rtachasi o'rtasidagi farqning kengayishidir. Agar 2021-yilda «O'zmilliybank»ning NPL ulushi (4,9 %) sektor o'rtachasidan (5,2 %) past bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib vaziyat teskariga o'zgargan: bank ko'rsatkichi 4,8 foizni, sektor o'rtachasi esa 3,5 foizni tashkil etgan. «Asakabank»da bu farq yanada sezilarli — 6,6 foizga qarshi 3,5 foiz, ya'ni deyarli ikki barobar. Bu davlat banklari portfelining sifati xususiy banklarga nisbatan sezilarli pastligini va sektor o'rtachasidagi yaxshilanish asosan xususiy segment hisobiga ta'minlanayotganini ko'rsatadi.

Barcha uch bankda muammoli kreditlar ulushi 2023-yilda eng yuqori nuqtaga yetgan va shundan keyin pasayish boshlangan. Bu pandemiya davrida restrukturizatsiya qilingan kreditlar bo'yicha imtiyozli davrlarning tugashi hamda 2023–2024-yillarda aktivlar sifatini tasniflash talablarining kuchaytirilishi bilan izohlanadi. 2024–2025-yillardagi yaxshilanish esa zaxiralarni faol shakllantirish va muammoli aktivlarni balansdan chiqarish siyosati natijasidir (2-rasm).



2-rasm. Muammoli kreditlar (NPL) ulushi dinamikasi, %



Zaxiralar bilan qoplanish darajasi 2023-yilgacha barcha banklarda pasaygan ("Asakabank"da 60 foizdan 54 foizgacha), so'ngra keskin yaxshilangan va 2025-yilda 70–82 foiz oralig'iga ko'tarilgan. Shunga qaramay, hech bir bankda zaxiralar muammoli kreditlarni to'liq qoplamaydi, ya'ni qoplanmagan kredit riski kapitalga bevosita bosim o'tkazish salohiyatini saqlab qolmoqda. Portfel konsentratsiyasi ham yuqoriligicha qolmoqda: "Asakabank"da yirik o'nta qarz oluvchi portfelning 38 foizini tashkil etadi, bu tarmoqqa ixtisoslashgan biznes-modelning bevosita oqibatidir. Valyuta kreditlarining ulushi barcha banklarda pasaygan bo'lsa-da, 39–49 foiz darajasi hamon yuqori hisoblanadi va so'm kursi o'zgarishiga nisbatan bilvosita kredit riskini shakllantiradi.

(1)-formula bo'yicha baholangan panel regressiya modelining natijalari 4-jadvalda keltirilgan (4-jadval).

4-jadval
Muammoli kreditlar ulushi omillarining panel regressiya modeli natijalari

Parametr / mezon	Qiymat	Standart xato	t-statistika
a (ozod had)	-1,3987	0,7365	-1,90
b ₁ (oldingi yil o'sish sur'ati)	0,0619	0,0206	3,01
b ₂ (yirik 10 qarz oluvchi ulushi)	0,1956	0,0164	11,95
R ² — determinatsiya koeffitsiyenti	0,9410	—	—
Tuzatilgan R ²	0,9279	—	—
F-statistika	71,77	—	—
Darbin-Uotson statistikasi	2,386	—	—
MAPE, %	2,92	—	—
Kuzatuvlar soni	12	—	—

Model yuqori tavsiflash qobiliyatiga ega: determinatsiya koeffitsiyenti 0,9410 ni tashkil etib, muammoli kreditlar ulushi o'zgarishining 94,1 foizi modelga kiritilgan ikki omil bilan izohlanadi. F-statistika qiymati (71,77) modelning umumiy ahamiyatlilikini 1 foizli ahamiyatlilik darajasida tasdiqlaydi, Darbin-Uotson statistikasi (2,386) esa qoldiqlarda avtokorrelyatsiya yo'qligini ko'rsatadi. Approksimatsiya xatoligi 2,92 foizni tashkil etadi.

Model koeffitsiyentlarining iqtisodiy talqini quyidagicha. b₁ = 0,0619 qiymati oldingi yilda kredit portfel o'sish sur'atining 1 foiz bandga oshishi keyingi yilda muammoli kreditlar ulushini o'rtacha 0,062 foiz bandga oshirishini bildiradi. Bu "tez o'sish — kechiktirilgan yo'qotish" qonuniyatini miqdoriy tasdiqlaydi: kredit ekspansiyasi davrida yumshatiladigan saralash mezonlari o'z ta'sirini bir yillik kechikish bilan namoyon etadi.

b₂ = 0,1956 koeffitsiyenti esa yanada kuchli ta'sirni ko'rsatadi: yirik o'nta qarz oluvchining portfeldagi ulushi 1 foiz bandga oshsa, muammoli kreditlar ulushi 0,196 foiz bandga ortadi. Ushbu omilning t-statistikasi 11,95 ni tashkil etib, modeldagi eng ahamiyatli o'zgaruvchi hisoblanadi. Amaliy nuqtayi nazardan, bu davlat banklarida kredit riskini kamaytirishning eng samarali yo'li portfelni diversifikatsiyalash ekanligini anglatadi — konsentratsiyani 10 foiz bandga kamaytirish muammoli kreditlar ulushini taxminan 2 foiz bandga qisqartirish imkonini beradi.

(2)-formula bo'yicha hisoblangan integral kredit riski indeksi 5-jadvalda, uning 2025-yil holatidagi tarkibiy qismlari esa 6-jadvalda keltirilgan (5 va 6-jadval).

5-jadval
Integral kredit riski indeksi (IKRI) dinamikasi


Bank	2021	2022	2023	2024	2025	2023-2025 o'zgarish
«O'zmilliybank» AJ	1,131	1,169	1,184	1,102	1,021	-0,163
«O'zsanoatqurilishbank» ATB	1,286	1,331	1,354	1,253	1,158	-0,196
«Asakabank» AJ	1,464	1,528	1,558	1,437	1,327	-0,231
Etalon daraja	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	—

6-jadval
2025-yil holatiga IKRI tarkibiy qismlari (etalonga nisbatan koeffitsiyent)

Tarkibiy qism	O'zmilliy-bank	O'zsanoat-qurilishbank	Asakabank	Vazn
Muammoli kreditlar ulushi (NPL)	0,96	1,10	1,32	0,30
Zaxiralarning qoplash darajasi (RC)	1,22	1,33	1,43	0,20
Portfel konsentratsiyasi (CONC)	1,12	1,28	1,52	0,20
Valyuta kreditlari ulushi (FX)	0,98	1,08	1,23	0,15
Kapital yetariligi (CAR)	0,79	0,96	1,05	0,15
IKRI — jami	1,021	1,158	1,327	1,00
Risk darajasi	o'rtacha	o'rtacha	yuqorilashgan	—




Integral indeks tahlili banklarni risk darajasi bo'yicha aniq tabaqalashtirish imkonini beradi. 2025-yil holatiga "O'zmilliybank" 1,021 qiymati bilan o'rtacha risk darajasining quyi chegarasida joylashgan va etalon darajaga eng yaqin bank hisoblanadi. "O'zsanoatqurilishbank" 1,158 qiymati bilan o'rtacha, "Asakabank" esa 1,327 qiymati bilan yuqorilashgan risk toifasiga kiradi (3-rasm).



3-rasm. 2025-yil holatiga kredit riski profili (IKRI tarkibiy qismlari)

Komponentlar kesimidagi tahlil har bir bank uchun risk manbalarini aniqlashtiradi. "O'zmilliybank"da yagona kuchli himoya omili kapital yetarliligi bo'lib (0,79), uning 19,0 foizli koeffitsiyenti Markaziy bankning 13 foizli me'yorida sezilarli yuqori; asosiy zaif nuqta esa zaxiralarning yetishmasligi (1,22). "Asakabank"da esa barcha besh komponent ham etalondan yomonroq bo'lib, eng katta og'ish portfel konsentratsiyasi bo'yicha qayd etilgan (1,52) — bu regressiya modeli natijalari bilan to'liq muvofiq keladi va bankning yuqori NPL ko'rsatkichini izohlaydi (4-rasm).



4-rasm. Integral kredit riski indeksi (IKRI) dinamikasi

IKRI dinamikasi barcha uch bankda yagona trayektoriyani — 2023-yilgacha o'sish va shundan keyingi pasayish — namoyon etadi. Bu davlat banklarida kredit riskining sikllik xususiyatga ega ekanligini va uning cho'qqisi 2023-yilga to'g'ri kelganini tasdiqlaydi. 2023–2025-yillarda indeks "O'zmilliybank"da 0,163 birlikka, "O'zsanoatqurilishbank"da 0,196 birlikka va "Asakabank"da 0,231 birlikka pasaygan. Eng yuqori risk darajasiga ega bo'lgan bank eng katta yaxshilanishni ko'rsatgani ijobiy holat bo'lsa-da, banklar orasidagi farq saqlanib qolmoqda: 2025-yilda "Asakabank"ning IKRI qiymati "O'zmilliybank"nikidan 30 foizga yuqori.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, uchta yirik davlat bankining kredit portfeli 2021–2025-yillarda 1,59 barobarga oshgan bo'lsa-da, ularning bank sektori kredit qo'yilmalaridagi ulushi 44,6 foizdan 39,5 foizgacha qisqargan. Bu bank tizimida davlat ishtirokini kamaytirish siyosatining amaliy natijasi hisoblanadi.

Ikkinchidan, davlat banklarining kredit portfeli sifati bank sektori o'rtachasidan sezilarli past bo'lib, bu farq kengayib bormoqda. 2025-yilda sektor bo'yicha muammoli kreditlar ulushi 3,5 foizni tashkil etgan holda, tadqiqot obyekti bo'lgan banklarda u 4,8–6,6 foiz oralig'ida qolgan. Zaxiralarning qoplash darajasi esa hech bir bankda 100 foizga yetmagan.

Uchinchidan, panel regressiya modeli muammoli kreditlar ulushiga ikki omilning — oldingi yildagi kredit o'sish sur'ati va yirik qarz oluvchilar konsentratsiyasining — statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko'rsatishini isbotladi. Konsentratsiya omilining ta'siri o'sish sur'ati ta'siridan uch barobar kuchli.

To'rtinchidan, taklif etilgan integral indeks banklarni risk darajasi bo'yicha tabaqalashtirish va har bir bank uchun risk manbalarini aniqlash imkonini beradi: "O'zmilliybank" — 1,021 (o'rtacha), "O'zsanoatqurilishbank" — 1,158 (o'rtacha), "Asakabank" — 1,327 (yuqorilashgan).

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilarni ilgari surish mumkin:

1. Davlat banklarida yirik qarz oluvchilarga nisbatan ichki limitlar tizimini kuchaytirish zarur. Yirik o'nta qarz oluvchining portfeldagi ulushini bosqichma-bosqich 25 foiz darajasiga tushirish maqsadli ko'rsatkich sifatida belgilanishi lozim; model hisob-kitoblariga ko'ra, bu muammoli kreditlar ulushini 1,5–2,5 foiz bandga qisqartirish imkonini beradi.

2. Kredit portfelini kichik va o'rta biznes hamda chakana segment hisobiga diversifikatsiyalashni jadallashtirish, tarmoqqa ixtisoslashgan biznes-modeldan universal modelga bosqichma-bosqich o'tishni ta'minlash tavsiya etiladi.

3. Zaxiralarning muammoli kreditlarni qoplash darajasini kamida 100 foizga yetkazish bo'yicha uch yillik dastur ishlab chiqilishi kerak. Qoplanmagan risk hozirda kapitalga bevosita bosim o'tkazish salohiyatiga ega, bu esa xususiylashtirish jarayonida bank qiymatining pasayishiga olib kelishi mumkin.

4. Kredit o'sish sur'atining bir yillik kechikish bilan risk ko'rsatkichlariga ta'sir etishi aniqlangani sababli, banklarning yillik biznes-rejalarida kredit o'sishi maqsadlari kapital va zaxira imkoniyatlari bilan qat'iy bog'lanishi, tez o'sish davrlarida esa qo'shimcha antisiklik zaxiralar shakllantirilishi maqsadga muvofiq.

5. Taklif etilgan integral kredit riski indeksini banklarning ichki risk-menejment tizimiga va Markaziy bankning nazorat amaliyotiga erta ogohlantirish vositasi sifatida joriy etish tavsiya etiladi. Indeksni choraklik hisobda hisoblab borish riskning oshib borish tendensiyasini uning muammoli kreditlar ko'rsatkichida namoyon bo'lishidan oldin aniqlash imkonini beradi.

Taklif etilgan uslubiy yondashuv O'zbekiston bank tizimining boshqa tijorat banklari kredit portfeli va kredit risklari holatini baholashda ham qo'llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "O'zbekiston Respublikasining 2020–2025-yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" PF-5992-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4811025>
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining "Tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish talablari to'g'risida"gi Nizomi. Adliya vazirligida 2019-yil 14-iyunda 3178-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining "Aktivlar sifatini tasniflash hamda aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizomi. Adliya vazirligida 2015-yil 14-iyulda 2696-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.
4. Altman E.I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy // The Journal of Finance. — 1968. — Vol. 23, No. 4. — P. 589–609.
5. Merton R.C. On the Pricing of Corporate Debt: The Risk Structure of Interest Rates // The Journal of Finance. — 1974. — Vol. 29, No. 2. — P. 449–470.
6. Berger A.N., DeYoung R. Problem Loans and Cost Efficiency in Commercial Banks // Journal of Banking & Finance. — 1997. — Vol. 21, No. 6. — P. 849–870.
7. Louzis D.P., Vouldis A.T., Metaxas V.L. Macroeconomic and Bank-Specific Determinants of Non-Performing Loans in Greece: A Comparative Study of Mortgage, Business and Consumer Loan Portfolios // Journal of Banking & Finance. — 2012. — Vol. 36, No. 4. — P. 1012–1027.
8. Klein N. Non-Performing Loans in CESEE: Determinants and Impact on Macroeconomic Performance. — IMF Working Paper WP/13/72. — Washington: International Monetary Fund, 2013. — 27 p.



9. Beck R., Jakubik P., Piloju A. Non-Performing Loans: What Matters in Addition to the Economic Cycle? – ECB Working Paper No. 1515. – Frankfurt am Main: European Central Bank, 2013. – 34 p.
10. Salas V., Saurina J. Credit Risk in Two Institutional Regimes: Spanish Commercial and Savings Banks // Journal of Financial Services Research. – 2002. – Vol. 22, No. 3. – P. 203–224.
11. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for the Management of Credit Risk. – Basel: Bank for International Settlements, 2000. – 26 p.
12. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: Finalising Post-Crisis Reforms. – Basel: Bank for International Settlements, 2017. – 162 p.
13. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment and Article IV Consultation. – Washington: IMF, 2024.
14. Tijorat banklarining kredit va depozitlari to'g'risida statistik ma'lumotlar. // O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti. – <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/>
15. Aktivlar miqdori bo'yicha guruhlashtirilgan tijorat banklari faoliyatining alohida ko'rsatkichlari. // O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti. – <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/>
16. 2026-yil uchun mahalliy tizimli ahamiyatga molik banklar belgilandi. // O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki matbuot xabari. – <https://cbu.uz/uz/financial-stability/press-releases/>
17. "O'zmilliybank" AJ, "O'zsanoatqurilishbank" ATB va "Asakabank" AJ yillik moliyaviy hisobotlari (2021–2025 yy.). // Korporativ axborot yagona portali. – <https://openinfo.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>